

SUZISH HAVZALARIDA SUVNING IFLOSLANISHI VA ULARNI TOZALASH

Shahobiddin Mamarasulov

*Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Oliy ilm fan maktabi” kordinatori*

Yuzaning ifloslanishi: soch, chang, yog', ekskrimentlar, suzuvchi axlat, o't. bulardan tozalash uchun suvning yuqori qatlamini tez-tez almashtirib turish lozim. Bu masalada almashtiruv sistemasi juda samarali hisoblanadi, chunki bu sistema yuzaga yaqin bo'lgan qismlardan suvni olib almashtirib beradi. Erkin xlor konsentratsiyasini kerakli bosqichda saqlab turish lozim.

Suvda eriydigan ifloslovchi moddalar: peshob, ter, turli kosmetik vositalari. Bunday vositalarni tozalash uchun filtratsiya va suv sirkulyatsiyasini bir maromda ushlab turish kerak. Suvda azotli qo'shilmalarni parchalaydigan miqdorda erkin xlor bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq.

Kimyoviy ifloslanish: suvni qayta ishlash va tozalash uchun ishlatiladigan kimyoviy moddalar hamda kimyoviy yuvish va tozalash vositalari. Suv havzasi ichida va tashqarisida eng kam miqdorda kimyoviy moddalarni qo'llagan ma'qul. Suvning balansini tekshirib turish, suv havzasi ichiga va uning atroflarini tozalashga faqatgina sifatli kimyoviy preparatlarni qo'llash yaxshi samara beradi.

Suvda erimaydigan ifloslovchi moddalar: popuk, gil, cho'kinda kimyoviy moddalar, filtrlardan chiqqan qum. Bu kabi moddalarni tozalash uchun har kuni yoki bo'lmaganda kerakli paytda yoki changyutgich bilan tozalash lozim.

Suzish havzalaridagi biologic ifloslanishni tozalash masalasida suvda tirik organizmlar suvda, asosan, issiq suvda tez ko'payishini va uning rangini yashil tusga solib xiralashtirishni hisobga olish ozim. Suv bunday holatda cho'milish uchun yaroqsiz holatga kelib qoladi. Suvning yuqori qismida, taxminan 150 mm qalinlikda suv havzasini ifloslovchi bakteriyalarning 75% I saqlanadi. Bakteriali ifloslanishga suv o'tlar – spora shaklidagi havo yoki vodoprovod suvi orqali kiradi. Bakteriya va viruslar suvga cho'miluvchilar tomonidan kritiladi: bu og'iz va burun shilliq qavatidan, yaralar orqali. Barchasi bo'lib, 600 000 000 bakteriya har bir cho'miluvchiga va 114 suv orqali yuqadigan fanga ma'lum viruslar yuqishi ehtimoli bor. Bunday ifloslanishdan saqlanish uchun dizenfeksiyallovchi vositalarni kerakli miqdorda bo'lishini ta'minlab turish kerak. Ko'pchilik teri va shilliq qavatdagi yallig'lanishni suvdagi xlor sababli deyishadi, ammo bunday holat bakteriyalar ta'sirida yuz berishi mumkin. Suv yaxshi tozalanmaydigan suv havzalarida ko'pgina bakteriya turlarini uchratish mumkin. Aynan shular inson ko'z va burun shilliq qavatiga ta'sir qiladi va turli yallig'lanishiga sabab bo'ladi.

Yuqori texnologik suv ta'minoti sistemasi bilan jixozlangan sport basseynlarida suv sifatiga kata talablar qo'yiladi. Bu talablarni bajarish uchun sirkulyatsiyalanayotgan suvni bir necha marotaba qalin va nozik tozalash amalga oshirilishi shart. Suv tozalanish



jarayonining kata samara berishi uchun undagi ifloslanish manbalari va suv tarkibini bilish zarur.

Sirkulyatsiyalanayotgan suvni tozalaydigan va dizenfeksiyalaydigan qurilma tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tasodifan tushib qolgan katta predmetlarni tozalash qurilmasi;
- yuqoridispresli aralashmalar (suvning rangi va shaffofligini buzuvchi omil) dan tozalovchi qurilma;
- suvni zararsizlantiradigan qurilma;
- reagent qurilmalar (koagulyatsiyalaydi va ishqorlaydi);
- suv almashinuvini ta'minlaydigan sirkulyatsion nasoslar;
- sirkulyatsiyalangan suvlarni isitish uskunasi;
- kontrol-o'lchagich uskunalari va avtomatik boshqarish sistemasi.

ADABIYOTLAR :

1. Кедров В.С. водоснабжение и водоотведение плавательных бассейнов.-М: Стройиздат,1977.
2. Руководство по эксплуатации плавательного бассейна. Москва, АРСН, 2009.

